

PAHLAVON BEY VA TUR ALI BEY – OQ QO‘YUNLI SULOLASI BEKLARI

Jumayev G‘ayratjon Ismatullo o‘g‘li

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turkmanlarning boyondur qabilasidan kelib chiqqan Oq qo‘yunlilarning dastlabiki hukmdorlari haqida manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarni tahlil etdik. Maqolada shuningdek, Pahlavonbey va Turalibeylarning faoliyati haqida ma‘lumotlar bayon etildi.

Kalit so‘zlar: Turkmanlar, Boyondur, Uzun Hasan, Pahlavon Bey Boyondur, Tur Alibey, Amid turklari, Oq qo‘yunlilar, Qabila.

PAHLAVON BEY AND TUR ALI BEY – BEYS (RULERS) OF THE AK KOYUNLU DYNASTY

Jumayev Gayratjon Ismatullo o‘g‘li

Ph.D. student

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

ABSTRACT

In this article, we analyzed the information provided in the sources about the first rulers of the Ak Koyunlu, who originated from the Bayondur tribe of Turkmen. Information on Pahlavonbey and Turalibey’s activities was also included in the piece.

Keywords: Turkmens, Boyondur, Uzun Hasan, Pahlavon Bey Boyondur, Tur Alibey, Amid Turks, Ak Koyunlu. Tribe.

ПЕХЛЕВАН БЕЙ И ТУР АЛИ БЕЙ – БЕИ (ПРАВИТЕЛИ) ДИНАСТИИ АК КОЮНЛУ

Жумаев Ғайратжон Исматулло ўғли

Базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

АННОТАЦИЯ

В данной статье мы проанализировали представленную в источниках информацию о первых правителях Ак Коюнлу, происходящих из туркменского племени Байондур. В статье также предоставлена информация о деятельности Пахлавонбея и Туралибея.

Ключевые слова. Туркмены, Байондур, Узун Хасан, Пахлавон-бек Байондур, Тур Алибей, Амидского тюрки, Ак Коюнлу. Племя.

Oq qo‘yunli turkmanlar (اق قويونلو) – turk-o‘g‘uz qabilalarining Boyondur (ايل بايندر) urug‘i birlashmasidan kelib chiqqan sulola va ular tashkil qilgan davlat nomidir. Dastlab XI-XII asrlarda Saljuqiylar imperiyasi qo‘l ostida hozirgi Eron, Mesopotamiya, Turkiya hududlariga kirib keldilar. Saljuqiylar va boshqa turkman guruhlarini singari Oqqoyunlilar ham islomning sunniy mazhabida edilar. Xulokuiylar davlati (Elxoniyalar) davrida turkman qabilalari ittifoqi tuzilishi boshlangan edi. Manbalarda Xuloku davlatining elxoni “Ilikxoni” Mahmud G‘ozonxon davrida Alovuddin Tur Ali Bey amirlik darajasiga erishgani, hamda “Amid [Diyorbakir] turklari”ning rahnamosi sifatida tilga olinadi. XIV asr birinchi yarmida Oq qo‘yunlilarning Sharqiy Onado‘li hududlariga ko‘chishlari kuchaydi.

Oq qo‘yunli qabila ittifoqining hukmdorlari Boyondur urug‘idan yetishib chiqqan beklar edi. Ushbu turkman qabilalar ittifoqining hukmdori dastlabki davrlarda ko‘pchilik turkiy qabilalardek: “Bek yoki Bey “بيک” unvoni bilan atalgan. Manbalarda Oq qo‘yunlilarning rahnamolari nomlari oldidan “amir”, “bek, bey” unvonlari keltiriladi. Uzun Hasan davridan sulola hukmdorlari sultonlarga aylandilar. Tarixda qabila ittifoqidan beklikka, beklidan davlatga, davlatdan saltanatga aylana olgan Oq qo‘yunlilar sulolasining dastlabki hukmdorlari Pahlavonbey Boyondur hamda uning o‘g‘li Tur Alibeylar edi.

Pahlavon Bey ibn Idris Bey Boyondur (پهلوان) (XIV asr o‘rtalari) – boyondur qabilasi rahnamosi, dastlab uning davrida Boyondur eli (ايل بايندر) Diyorbakir (دياربکر)

viloyatiga joylashadilar. “Kitobi-Diyarbakriyya” asarida uning Alinja qal’asini egallab, Chormo’g’un no’yonni yengib, 1340 yili Diyorbakirda vafot etgani qayd etilgan. O’limidan so’ng uning o’rniga o’g’li Tur Ali bek o’tirdi va 1362-yilgacha hokimiyatda qoldi.

Alovuddin Tur Ali Bey ibn Pahlavon Bey Boyondur (طور على بن پهلوان) (1348-1362) –, Oq qo’yunli qabilalari ittifoqi boshlig’i, Tur Ali Bey Boyondur haqida manbalarda juda kam ma’lumotlar mavjud. U va uning o’g’li Faxriddin Qutlug’bey haqidagi ilk ma’lumotlarni Trabzon-Rum tarixchilaridan biri Panaretos keltirib o’tgan.

Pahlavon Boyondur o’g’li Alovuddin Tur Ali Bey Bayburtda tug’ilgan. Oq qo’yunli ulusida ilk tangalarni zarb ettirgan hukmdor sanaladi. Tur Ali Bey davrida uning boshchiligidagi Oq qo’yunlilar shimolga qarab yuradilar Bayburt va Arzinjon atrofida joylashadilar. Boyburt yaqinidagi Sinur qishlog’ida qurilgan Oq qo’yunli me’moriy yodgorliklari, jumladan, Tur Alibek va Faxriddin Qutlug’bek maqbaralarining mavjudligi bu ko’chishning dalilidir.

Tur Ali Bey yoshligida amir Cho’pon va uning o’g’li Temirtoshning harbiy yurishlarida qatnashgan. 1328-yilda Temirtoshning vafotidan keyin, u qo’shni qabilalar ustidan hokimiyatni mustahkamlashga e’tibor qaratgan. 1335-yilda Elxoniylar davlati xoni Abu Said vafotidan keyin, Tur Ali Cho’poniylar va Jaloiriylar o’rtasidagi kurashga faol aralashdi. U sekin-asta urug’-qabilalarni o’ziga bo’ysundirib, 1340-yilda Oq qo’yunli qabila konfederatsiyasini tuzdi va “Bey” unvonini qabul qildi. Uzoq vaqt davomida Tur Ali Bey boshchiligidagi Oq qo’yunlilarning doimiy qarorgohi yo’q edi, ular bir hududdan boshqa hududga ko’chib, bosqinchilik yurushlari qilishgan. Bunday yurushlar davomida Tur Ali Bey Eretna beyligi bilan ittifoq tuzdi. 1341-yilda Diyorbakirga egalik qilgan Sutaylar sulolasiga qarshi urush boshlaydi. Unga qarshi kurashish uchun Tur Ali Bey Mardin amiri Solih Shamsuddin (Artukiylar sulolasidan) bilan ittifoq tuzadi. Urush 1340-yillar oxirigacha davom etdi. 1348-yildan boshlab Tur Ali Bey Trabizond imperiyasiga qarshi yurishlar uyushtirdi, bu esa katta o’lja olib keldi. 1350-yilda Sutay ustidan g’alaba qozonib, Diyorbakir va Mosulgacha bo’lgan hududni vayron qildi. 1352-yilda Tur Alibey Trabizond imperatori Aleksey III ni (1349-1390) singlisi Mariyani o’g’li Qutlug’ga turmushga berishga majbur qiladi. Shundan so’ng, u Trabizond yerlarini talon-taroj qilishni to’xtatdi. XIII asrning 50-yillarida Tur Alibey Cho’poniylar qaramligidan xalos bo’ldi va shu bilan birga Jaloiriylar saltanatiga bo’ysunmadi.

Tur Alibek haqida ma’lumot beruvchi manbalardan yana biri Abubakr Tehroniy qalamiga mansub “Kitobi-Diyarbakriya”dir.

“Kitobi-Diyarbakriya”da yozilishicha, Pahlavonbek Boyondurdan keyin hokimiyatni qo’lga olgan Tur Alibey o’z qo’l ostidagi 30 ming oila bilan Rum (Anatoliya) chegarasidan Damashq, Misr, Jaziralar va Iroqgacha bo’lgan hududlarda

yillar davomida hukmronlik qilgan. U Elxoniy hukmdori G‘ozonxon tomonidan Suriyaga uyushtirilgan safarda qatnashgan va bu safardagi muvaffaqiyati tufayli yuksak martabalariga sazovor bo‘lgan va obro‘-e‘tibor qozongan. Tur Alibekning bu safarlardagi muvaffaqiyati natijasida, uning qo‘l ostidagi Oq qo‘yunli xalqi ko‘p joylarda, xususan, Misr va Damashqda “Tur Alilar” nomi bilan atala boshlagan. “Kitobi-Diyarbakriya”da Tur Ali Bey qo‘l ostidagi Oq qo‘yunlining “Tur Alilar” deb tilga olinishi haqidagi ma‘lumotlar haqiqat deb tushunilsadi, ammo boshqa ma‘lumotlarda buning to‘g‘riligi tasdiqlanmagan. Boyondurlar mamluq manbalarida “Tur Alilar” nomi bilan tilga olingani ham hammaga ma‘lum faktlardandir.

Panaretosning ma‘lumotiga ko‘ra, Tur Alibey rahbarligidagi Oq qo‘yunlilarning ilk harbiy safari 1340-yilda Trabzon-Rum imperiyasiga qarshi yurushi edi. Panaretos Oq qo‘yunlilarni “Amid turklari” degan ma‘noni bergan “Amitiotai” so‘zi bilan tilga oladi. Shuningdek, Panaretos bu safar Trabzon-Rum imperiyasining hujumlariga javoban uyushtirilgani ma‘lum qiladi. 1341-yil 4-iyulda Tur Alibey boshchiligidagi turkmanlar yana Trabzonga hujum qiladilar. Tur Alibeyning uchinchi yurushi esa 1343-yilda sodir bo‘ladi. 1348-yil 29-iyunda Arzinjon hokimi Axi Ayna Bey va Bayburt hokimi Muhammad Rikobdor bilan ittifoq tuzib, yana Trabzonga yurish qiladi. Ushbu yurush haqidagi ma‘lumotlar yunon manbalarida o‘z aksini topgan.

Yana 1348-yilda Duharlu qabilasidan Yusufbeyning Trabzonliklar bilan bo‘lgan jangda shahid bo‘lishi Tur Alibey va uning o‘g‘li Qutlug‘ Beyning Trabzonga hujumi bilan yakunlanadi. Turklarning hujumlariga qarshi kurasha olmasligini anglagan imperator Aleksey III Tur Alibeyning o‘g‘li Faxriddin Qutlug‘beyga singlisi Mariyani 1352-yilda turmushga berib, uning do‘stligi va ittifoqini qo‘lga kiritadi. Biroq “Kitobi-Diyarbakriya”ga ko‘ra, malika Mariya Yusuf Beyning qasosini olish maqsadida o‘lja sifatida qo‘lga olingan. Bu voqea bilan Oq qo‘yunli – Trabzon munosabatlarida yangi bosqich boshlandi. Tur Alibey Bo‘zdo‘g‘anbey bilan munosabatlari iliq bo‘lgan.

Manbalarda Turali bekning vafoti sanasi haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q. Biroq, Tur Alibey Aleksey III Komnenos bilan oilaviy munosabatlari boshlangan 1352-yildan Faxriddin Qutlug‘bekning 1363-yildagi Trabzonga rejalashtirgan safari yillari oralig‘ida vafot etgan deb ishoniladi. Ayrim manbalarda uning 1362-yilda Arzinjonda vafot etgani va o‘rniga vorisi Faxriddin Qutlug‘ Oq qo‘yunlilarning yangi begi bo‘lgani qayd etilgan.

Tur Alibekning hokimiyati sharoitlari, va hukmronligi haqida, u egallagan hududlarning ko‘lami haqida ko‘p ma‘lumotlar bo‘lmasa-da, uning Oq qo‘yunli sulolasi tarixidagi o‘rni beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Faruk Sümer, "Akkoyunlular", Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi s. 270.
2. Çetin Varlık, "Akkoyunlular", VIII, İstanbul, 1988, s. 408.
3. J. E. Woods, 300 Yıllık Türk İmparatorluğu Akkoyunlular, Aşiret, Konfederasyon, İmparatorluk, çev. Sibel Özbudun, Milliyet yay., İstanbul, 1993., s.79.
4. Tihârî, Diyârbekriyye, s. 40–43, çev. s. 39–40
5. İ. H. Uzunçarşılı, Anadolu Beylikleri, s. 189
6. I.Aka, İran’da Türkmen Hâkimiyeti, s. 26.
7. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
8. Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. Scholar scientific journal. Volume 1, Issue 34. December. 2023. P. 85-90.
9. Jumayev G.I. Boyondurlar: tarixi va etimologiyasi. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2, Issue 17. December. 2023. p.215-219.